



Akademia
Pomorska
w Słupsku



АЛТАЙСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ



**“ANTROPOGEN LANDSHAFTSHUNOSLIK:
TADQIQOT METODLARI, MODERNIZATSIYA
VA BARQAROR RIVOJLANISH”**



xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
Samarqand sh., 2024 yil 17-18 may

**«АНТРОПОГЕННОЕ ЛАНДШАФТОВЕДЕНИЕ: МЕТОДЫ
ИССЛЕДОВАНИЯ, МОДЕРНИЗАЦИЯ
И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ»**

международная научно-практическая конференция
г.Самарканд, 17-18 мая 2024 г.

**“ANTHROPOGENIC LANDSCAPE SCIENCE:
RESEARCH METHODS, MODERNIZATION AND
SUSTAINABLE DEVELOPMENT”**

International scientific-practical conference
Samarkand, May 17-18, 2024



“Antropogen landschaftshunoslik: tadqiqot metodlari, modernizatsiya va barqaror rivojlanish”
Samarqand sh., 17-18 may 2024 yil.

«Антропогенное ландшафтоведение: методы исследования, модернизация и устойчивое развитие»
Самарканд, 17-18 мая 2024 года.

“Anthropogenic landscape science: research methods, modernization and sustainable development” Samarkand, May 17-18, 2024.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

O‘zbekiston Geografiya jamiyati

Pomoriya Akademiyasi (Slupsk, Polsha)

Oltoy davlat universiteti

Shimoliy Kavkaz Federal universiteti

Chuvash davlat universiteti

O‘sh davlat universiteti



**“ANTROPOGEN LANDSHAFTSHUNOSLIK:
TADQIQOT METODLARI, MODERNIZATSIYA VA BARQAROR
RIVOJLANISH”**

**mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
Samarqand, 2024 yil 17-18 may**

Samarqand - 2024

«Antropogen landshaftshunoslik: tadqiqot metodlari, modernizatsiya va barqaror rivojlanish» xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (Samarqand, 2024 yil 17-18 may). – Samarqand, 2024. – 421 b.

Tahrir hay’ati:

Abbasov S.B., g.f.d. professor (mas’ul muharrir);

Izzatullaev Z., b.f.d.professor; **Axmadaliyev Y.I.**, g.f.d. professor; **Boymirzaev K.M.**, g.f.d. professor; **Ravshanov A.X.**, g.f.f.d. dotsent; **Ibragimov L.Z.**, g.f.d. professor; **Sabirova N.T.**, g.f.f.d. dotsent; **Mamajonov R.I.**, g.f.f.d. (PhD); **Usmonov M. R.**, g.f.n., dotsent; **Qobilov E.E.**, t.f.d., professor; **Meliyev B.A.**, g.f.f.d. dotsent.

To‘plamda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida 2024 yil 17-18 may kunlari bo‘lib o‘tgan **«Antropogen landshaftshunoslik: tadqiqot metodlari, modernizatsiya va barqaror rivojlanish»** xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilarining ilmiy maqolalari chop etilgan. Konferensiya O‘zbekiston Geografiya jamiyati, Oltoy davlat universiteti, Shimoliy Kavkaz federal universiteti, Chuvash davlat universiteti, Pomoriya Akademiyasi (Polsha), O‘sh davlat universiteti bilan hamkorlikda o‘tkazildi. Maqolalar mavzulari antropogen landshaftshunoslik tadqiqotlarda GIS texnologiyalari va innovatsiyalarni qo‘llash, antropogen landshaftlarni tadqiq etishda zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar, global iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslaridan foydalanish va landshaftlar modernizatsiyasi, atrof-muhit monitoringi va landshaftlar ekologiyasi masalalariga bag‘ishlangan. Ushbu maqolalar to‘plami geograf mutaxassislar, talabalar, magistrantlar, doktorantlar, o‘qituvchilar, shuningdek, barcha zamonaviy geografiya faniga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Mazkur to‘plamga kiritilgan maqolalarning mazmuni va statistik ma’lumotlarining to‘g‘riligi uchun mualliflar javobgardir.

**Министерство высшего образования, науки и инноваций
Республики Узбекистан**
Географическое общество Узбекистана
Самаркандский государственный университет имени Ш.Рашидова
Поморская Академия в Слупске, Польша
Северо-Кавказский федеральный университет
Алтайский государственный университет
Чувашский государственный университет имени И.Н. Ульянова
Ошский государственный университет



**«АНТРОПОГЕННОЕ ЛАНДШАФТОВЕДЕНИЕ: МЕТОДЫ
ИССЛЕДОВАНИЯ, МОДЕРНИЗАЦИЯ И УСТОЙЧИВОЕ
РАЗВИТИЕ»**

**Материалы международной научно-практической конференции
Самарканд, 17-18 мая 2024 г.**

Самарканд - 2024

«Антропогенное ландшафтоведение: методы исследования, модернизация и устойчивое развитие» материалы международной научно-практической конференции (Самарканд, 17-18 мая 2024 года). – Самарканд, 2024. –421 с.

Редакционная коллегия:

Аббасов С.Б., г.ф.д. профессор (ответственный редактор);

Иззатуллаев З., д.б.н., профессор, **Ахмадалиев Ю.И.,** д.г.н., профессор; **Баймирзаев К.М.,** д.г.н., профессор; **Равшанов А.Х.** д.ф.г.н., доцент; **Ибрагимов Л.З.** д.г.н., профессор; **Сабилова Н.Т.** д.ф.г.н., доцент; **Мамаджанов Р.И.** д.ф.г.н. (PhD), **Усмонов М.Р.,** к.г.н. доцент, **Қобилов Э.Э.,** д.м.н., профессор, **Мелиев Б.А.** д.ф.г.н. доцент.

В сборнике опубликованы научные труды участников международной научно-практической конференции «**Антропогенное ландшафтоведение: методы исследования, модернизация и устойчивое развитие**», состоявшейся 17-18 мая 2024 года в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. Конференция проводилась в сотрудничестве с Географическим обществом Узбекистана, Алтайским государственным университетом, Северо-Кавказским федеральным университетом, Чувашским государственным университетом, Поморской академией (Польша), Ошским государственным университетом. Темы докладов посвящены применению ГИС-технологий и инноваций в исследованиях антропогенных ландшафтов, современные экономические и социальные географические исследования при изучении антропогенных ландшафтов, использование водных ресурсов и модернизация ландшафтов в условиях глобального изменения климата, мониторинг окружающей среды и ландшафтная экология. Сборник статей предназначен для географов, студентов, магистров, докторантов, преподавателей, а также всех интересующихся современной географией.

“Antropogen landshaftshunoslik: tadqiqot metodlari, modernizatsiya va barqaror rivojlanish”
Samarqand sh., 17-18 may 2024 y.

«Антропогенное ландшафтоведение: методы исследования, модернизация и устойчивое развитие»
Самарканд, 17-18 мая 2024 г.

“Anthropogenic landscape science: research methods, modernization and sustainable development” Samarkand, May 17-18, 2024.

**Ministry of Higher Education, Science and Innovation
Republic of Uzbekistan
Geographic Society of Uzbekistan
Samarkand State University named after Sharaf Rashidov
Pomeranian Academy in Slupsk, Poland
North Caucasian Federal University
Altai State University
Chuvash State University named after I.N. Ulyanova
Osh State University**



**“ANTHROPOGENIC LANDSCAPE SCIENCE:
RESEARCH METHODS, MODERNIZATION AND
SUSTAINABLE DEVELOPMENT”**

**Materials of the international Scientific and Practical Conference
Samarkand, May 17-18, 2024**

Samarkand - 2024

“**Anthropogenic landscape science: research methods, modernization and sustainable development**” Materials of the International Scientific and Practical Conference (Samarkand, May 17-18, 2024). - Samarkand, 2024. – 421 p.

Editorial team:

Abbasov S.B., professor (responsible editor);

Izzatullaev Z., Doctor of Biological Sciences, professor; **Akhmadaliyev Yu**, Doctor of Geography, professor; **Boimirzaev K. M.**, Doctor of Geography, professor; **Ravshanov A.**, PhD. Associate Professor; **Ibragimov L.** Doctor of Geography, professor; **Sabirova N.T.**, (PhD); **Mamazhonov R.I.**, (PhD); **Usmonov M.R.**, Ph.D. Associate Professor; **Kobilov E.E.**, Doctor of Medical Sciences, Professor; **Meliyev B.**, (PhD).

The collection published the scientific works of the participants of the international scientific and practical conference “Anthropogenic landscape science: research methods, modernization and sustainable development”, held on May 17-18, 2024 at Sharof Rashidov Samarkand State University. The conference was held in cooperation with the Geographical Society of Uzbekistan, Altai State University, North Caucasus Federal University, Chuvash State University, Pomor Academy (Poland), Osh State University. The topics of the reports are devoted to the use of GIS technologies and innovations in the study of anthropogenic landscapes, modern economic and social geographical research in the study of anthropogenic landscapes, use of water resources and modernization of landscapes in the context of global climate change, environmental monitoring and landscape ecology. The collection of articles is intended for geographers, students, masters, doctoral students, teachers, as well as all those interested in modern geography.

I-SHO‘BA: ANTROPOGEN LANDSHAFTSHUNOSLIK TADQIQOTLARDA GIS TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARNI QO‘LLASH.

QUYIMOZOR - TO‘DAKO‘L SUV OMBORLARI ATROFI LANDSHAFTLARINI OQILONA TASHKIL QILISH XUSUSIDA

Abbasov S.B.

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, O‘zbekiston

Mirzoyeva I.E.

Buxoro davlat universiteti, O‘zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada Quyimozor - To‘dako‘l suv omborlari atrofida gipsli - chag‘illi landshaft, agrolandschaft, seliteb landshaft, rekreatsiya landshaft tiplariga tavsif berilgan hamda landshafllarni oqilona tashkil qilish xususida tegishli tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Seliteb landshaft, rekreatsiya, suv ombor, voha, relyef, fitomeliyativ, agrolandschaft, tabiiy resurs, tabiat, plato.

Rational organization of landscapes around the Kuyimazar-Tudakul reservoir

Abstract: This article describes the types of gypsum-gravel landscape, agrolandscape, seliteb landscape, and recreational landscape around the Kuyimozor-Todakol reservoirs, as well as the relevant recommendations for the rational organization of landscapes.

Key words: Seliteb landscape, recreation, reservoir, oasis, relief, phytomelioration, agrolandscape, natural resource, nature, plateau.

Рациональная организация ландшафтов вокруг Куйимазар-Тудакульского водохранилища

Аннотация: в данной статье приводится описание типов гипсокартонного ландшафта, агроландшафтного, селитебного ландшафта, рекреационного ландшафта вокруг низменных водоемов и приводятся соответствующие рекомендации по рациональной организации ландшафтов.

Ключевые слова: селитебный ландшафт, рекреация, водохранилище, оазис, рельеф, фитомелиорация, агроландшафт, природный ресурс, природа, плато.

Har bir hudud o‘ziga xos tabiiy xususiyatiga ega. Inson o‘z hayoti davomida tabiatdan foydalanishda mazkur hududning tabiiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ya‘ni tabiat bilan uyg‘un yashashga, uning imkoniyatlaridan samarali foydalanishga intiladi. Ana shunday joylardan biri Quyi Zarafshon tabiiy geografik okrugiga tegishli joy – Quyimozor - To‘dako‘l suv omborlari atrofida hududlardir. Hozirgi kunda bu hudud ma‘muriy jihatdan Navoiy viloyatining Qiziltepa tumaniga tegishli. Hududning markaziy qismida Quyimozor, To‘dako‘l suv omborlari joylashgan. Ushbu sun‘iy ko‘llar asosan Buxoro qisman esa, Navoiy hududiga tegishli obikor yerlarni hamda, Buxoro viloyati aholisini ichimlik suv bilan ta‘minlash maqsadida barpo qilingan edi.

Keyinchalik esa suv omborlari atrofida suv bilan bog‘liq infratuzilmalar hamda Navoiy, Buxoro viloyati aholisi uchun dam olish maskanlari tashkil qilindi. Suv omborlarining janubi - sharqiy qismida esa Amu-Buxoro mashina kanalining ishga tushirilishi (1975) tufayli yangi o‘zlashtirilgan maskan – O‘rtacho‘l vohasi barpo etildi. Quyimozor - To‘dako‘l suv omborlari atrofida hududlarda Zirabuloq - Ziyovuddin tog‘larining eng g‘arbiy qismi etagida joylashgan bo‘lib, nishab va to‘lqinli relyefga ega. Mazkur hudud topografik jihatdan Buxoro vohasi yuzasidan 4-8-12-40 metr balandda bo‘lib, yassi va gumbazsimon to‘lqinli yuzali relyefga ega. U sharqqa tomon, ya‘ni Ziyovuddin tog‘lari etaklari tomon ko‘tarilib boradi. Mutlaq balandliklar O‘rtacho‘l vohasi tog‘ etaklarida 260-280 metrni tashkil qilsa, Quyimozor suv omborini shimol tomonidan o‘rab turgan Quyimozor platosida 267 metr, 230 metr; To‘dako‘l suv omborini o‘rab turgan To‘dako‘l platosida esa 242 - 255 metrgacha ko‘tarilib turadi.

Quyimozor va To‘dako‘l suv omborlari Zarafshon daryosining chap tarmog‘i hamda, Qashqadaryo havzasi (Qarnob cho‘li) hududidan kirib kelgan Suvqayti soylarining erozion faoliyati tufayli hosil bo‘lgan pastqamliklarda barpo etilgan.

Quyimozor-To‘dako‘l suv omborlari atrofi hududlari hozirgi landshaftlari uzoq davr va turli geografik sharoitlarni kechirgan, hamda o‘tmish davrlar tabiiy sharoitlarini o‘z xotiralarida saqlab kelgan. Bu merosiy xususiyatlar o‘z navbatida hozirgi landshaftlarning negizi barqarorligi, biomahsuldorligi, ekologik sifatlariga, xullas, ularning iqtisodiy - ijtimoiy salohiyatini belgilab turadigan muhim omillardan hisoblanadi. Shu ma’nodan K.K. Markov (1986) “geografiya uchun yer yuzasining o‘tmishi uning hozirgi manzarasini bilish uchun kalitdir” deb qayd qilgan edi. Hozirgi landshaftlar o‘tmish landshaftlarining vorisidir. Falsafiy til bilan aytganda, bugungi kun o‘tmishining inkori va ayni paytda uning davomidir.[2,6]

Quyimozor - To‘dako‘l suv omborlari atrofi hududlari landshaftlarining shakllanishida neogengacha bo‘lgan davr dastlabki, to‘ng‘ich bosqich hisoblanadi. Uning geologik taraqqiyoti Turon plitasining janubi-sharqiy chekkasi doirasida rivojlangan. Bu yerda yer po‘stining qalinligi 40 km atrofida.

Quyimozor-To‘dako‘l suv omborlari atrofida mavjud ayrim landshaft tiplariga tavsif berib o‘tishni joiz topdik: gipsli-chag‘illi landshaft tipi - Quyimozor platosining asosiy qismi va To‘dako‘l suv omborining g‘arbiy va janubi - g‘arbiy sohillarini egallaydi. To‘dako‘l suv omborining janubi - g‘arbiy sohiliga yondosh yerlarda relyef keskin to‘lqinlangan. Qodir Shayx tepaligiga (255 m) va "Uchlik" suv taqsimlagichi relyefning to‘lqinli sathi nisbatan keskin 60 - 70 metrga boradi. Bu maydonlar qum chag‘illi allyuvial yotqizqlar bilan qoplangan lekin o‘ta gipslashgan. Qodir Shayx tepaligi atrofida tuproqlar tarkibidagi gipsning miqdori 60-90%ga boradi. Tuproq juda jipslashgan, avtomorf sharoitida rivojlanadi, shu sababli daraxt, buta o‘simliklari qandim, cherkez, saksovil, quyonsuyak kabi turlar tabiiy holda uchramaydi. Aksariyat gipsofil turlar ili singreni, xiva singreni, partak, iris, kavrak, isiriq, chaqich kabi turlar yetakchilik qiladi. Efemeroid, efemerlardan yaltirbosh, lolaqizg‘aldoq, qo‘ng‘irbosh, qora bosh, arpag‘on keng tarqalgan. To‘lqinli relyefning pastqam yerlarida yantoqlar orolsimon tarzda uchraydi. Yantoq butalarning fizologik holati, mahsuldorligi, sizot suvlarining sathi va sho‘rlanish tarkibiga bog‘liq holda o‘zgarib boradi. Hozirgi davrda bunday landshaftlarning antropogen ta’sir tufayli biomahsuldorligi pasayib ketgan. Chorva uchun yaroqsiz holga kelgan juda katta maydonlarda hozirgi kunda ham qum chag‘alni qazish ishlari ham davon etmoqda. Xususan, Buxoro vohasiga yaqin yerlar tashlandiq holga kelib qolgan, ayrim joylarda uy-ro‘zg‘or chiqindilari tashlangan. Xullas landshaft fitomelioratsiyaga va qat’iy muhofazaga muhtoj. [1,2]

Agrolandshaftlar-mazkur landshaftlar Quyimozor suv ombori atrofida parcha-parcha holda uchraydi. Eng qadimgisi Buxoro vohasining Qiziltepa tumaniga tegishli yerlardir. Ayniqsa, Ayranchi qishlog‘i atrofida qadimgi dehqonchilik maskanlaridan biri. Bu yerga paxta, bug‘doy kabi madaniy ekinlar ekiladi. Lekin yerlarning meliorativ holatiga ko‘ra murakkab, ular odatda sho‘rlangan, sizot suvlari 2-3 metr chuqurlikka yotadi.

Ayranchi qishlog‘ining janubida ularning yer betiga chiqib yotgan joylar mavjud. Voha landshaftlari orasida O‘rtacho‘l eng yosh yangi o‘zlashtirilgan maskandir. O‘rtacho‘l, To‘dako‘l suv ombori va Ko‘ktosh oralig‘ida joylashgan To‘dako‘l pastqamligi tomon nishab, tog‘oldi tekisligidir. Mutloq balandlik yuqori qismida 220-300 metr bo‘lsa, To‘dako‘l suv omborlari atroflarida 220 metrgacha pasayadi. Qadimda To‘dako‘l-O‘rtacho‘l vohasi (Malik va Qarnob cho‘li orasida joylashgan) chorvadorlar vatani bo‘lgan. Yaylovzorlari hosildor, ayniqsa qo‘ng‘irbosh, yaltirbosh, qorabosh, shuvoq, pasttepa, singren, chaqir (qandim) yaxshi o‘sgan. Hudud to‘lig‘incha quduqlar suvi bilan ta’minlangan.

Hozirgi kunda Quyimozor-To‘dako‘l suv omborlari atrofida hududlar landshaftlaridan yaylov hamda rekreatsiya – turistik zona sifatida ham foydalanib kelinmoqda.

Rekreatsion landschaftlar - ya'ni keng ommani hamda yo'lanma bilan kelgan dam oluvchilar uchun ajratilgan va shart sharoitlar yaratilgan hududlardir. To'dako'l suv omborining janubi - g'arbiy sohili rekratsion resurslar uchun qulay imkoniyatlarga ega. Ikki – uch km sohil bo'ylab cho'zilgan bu zonada Buxoro viloyati tashkilotlari tomonidan bunyod etilgan binolar, yashil yo'laklar, sohil bo'yi cho'milish maydonchalari yaratilgan. Bular orasida Buxoroliklar uchun yaratilgan rekratsion zona o'ziga xos. Yarim gektar keladigan asfalt maydoncha ikki tomondan baland ayvonlar bilan o'ralgan. Sohil oldida mevali daraxtlardan iborat bog', uning g'arbiy tomonida esa kottejlar, qattiq qoplamli yo'laklar, kerakli infratuzilmalar barpo qilingan. Dam oluvchilarni kutib olish, ularga shart- sharoitlarni yaratib berishda ayrim kamchiliklar mavjud: qazib tashlangan, tashlandiq yerlar, tashlandiq binolar zonaning ko'rkiga "soya tashlab" turibdi. Cho'milish yo'lakarida soyabonlar o'rnatish, ularning sanitariya - gigeniya, ekologik holatini yaxshilash lozim.

Quyimozor suv ombori esa aksariyat ichimlik suvi manbai sifatida foydalaniladi va muhofaza qilinadi. Suv ombori sohillari himoya zona sifatida qo'riqlanadi. Shu bois bu yerda dam olish zonalarini yo'q hisobida. Faqat erkin dam oluvchilarni uchratish mumkin. Suv omborining shimoliy -sohilida Kogon - Toshkent temir yo'lga yondosh yerda "temir yo'lchilarning dam olish zonasi" barpo etilgan. Zona taxminan 1 gektar maydonni egallaydi, beton devorlar bilan o'ralgan. Sohil bo'yi zinapoyasimon ko'tarilib turadi va Quyimozorni tomosha qilib turadigan sahnaga o'xshaydi. Sohil chag'illi allyuvial negizga ega. Uzoqdan suv omborining tik - chinksimon yerli relyef ajoyibotlarini kuzatish mumkin. Salqin shabada doim sizni kuzatib turadi. Dam olish xonalari, to'rt tomoni ochiq shosupali ayvon dam olish imkoniyatlarini oshiradi. Sohil relyefiga uyg'un bo'lgan zinapoyalar dam oluvchini ruhini ko'taradi. Lekin ushbu zonani ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish talab darajasida emas, yaylov resurslari kambag'allashgan. Shu bois hududda fitomelioratsiya ishlarini amalga oshirish, buning uchun shuvoq, qo'ng'irbosh, ili astragali, qandim, cherkez, qora saksovol kabi fitomeliorantlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Seliteb landschaftlarga -To'dako'l, Quyimozor suv omborlari atrofida turar joylar, korxonalar va dam olish maskanlari kiritiladi. To'dako'l – O'rtacho'l vohasi aholi turar joylari o'rganildi mahalliy aholi bilan suhbatlashilganda 1982 yilda bu hududda 9 ta sovxoz tashkil etilgan. Hozirgi kunda 3 ta hududda aholi istiqomat qiladi. Hududda suv muammosi yetakchilik qiladi. Ichimlik suvini 20-25 km masofadan transportlar yordamida olib kelinadi. Aholi uchun sharoitning yaxshi emasligi tufayli aholi yashash joylarini tashlab ketmoqda. Birgina, Xuroson qishlog'ida 1985 yillarda 50 ta xo'jalik yashagan. Hozirda bu hududda 7 ta oila istiqomat qiladi. Ilgari 4 yillik maktab bo'lgan. Hozirda uy joylar, madaniyat uylari tashlandiq holatda.

Akva landschaftlar tipi – Quyimozor va To'dako'l suv ombori atrofidagi suvli landschaftlar alohida o'rin tutadi. Quyimozor (1957) To'dako'l (1983) suv omborlarini bunyod etilishi, aniqrog'i Amu - Buxoro mashina kanalining (1-navbati 1965, 2-navbati 1983 yil) ishga tushirilishi tufayli hudud landschaftlarida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Suv omborlari atrofida infratuzilmalar barpo etildi. Yo'llar, nasos stansiyalari oldida dala aholi manzilgohlari, dam olish maskanlari, bog' chorbog'lar hamda ichimlik suvlarini tozalab tayyorlab beradigan korxonalar yaratildi. Boshqacha qilib aytganda, suvdan foydalanishning kompleks tizimi yaratildi. [4,5]

Quyimozor suv ombori Zarafshon daryosining Quyimozor tarmog'i tufayli yaratilgan erozion botiqda 1957 yilda barpo qilingan. U 1986 yilda qayta ta'mirlangan janubi - g'arbiy tomondan olti kilometrli damba bilan o'ralgan. Hozirgi kunda Zarafshondan kirib keladigan Quyimozor kanali berkitilib, undan keladigan suv To'dako'l suv omboriga yo'naltirilgan. Suv omboriga ABMKning birinchi navbatidan Quyimozor nasos stansiyasi orqali suv quyiladi xolos. Uning suvi aksariyat ichimlik suvi sifatida foydalaniladi. Suvning sho'rlanganlik darajasi 1g litr atrofida, 2007- 2008 yilning qish oylarida to'liq muz bilan qoplangan. Ko'p yillarda u muzlamaydi maksimal chuqurligi 40 m gacha boradi. Suv omborining suv sig'imi 320 mln m kub, foydali hajmi nisbatan yuqori 230 mln metr kubni tashkil qiladi. Qolgan 80 mln metr kub suvdan foydalanilmaydi. Jami sug'orishga ketgan suvning hajmi 168,4 mln m kub ni tashkil qilgan (2006) qolgan qismi ichimlik suv sifatida foydalanilgan. To'dako'l botig'i va uning

etablari sho‘rlangan gipsli allyuvial yotqiziqlar bilan qoplangan. Bu maskan baliqchilikni rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlarga ega. 2006 yilning boshlarida To‘dako‘lda "Akva To‘dako‘l" baliqchilik qo‘shma korxonasi (O‘zbekiston Amerika) tashkil qilindi. Mahsuldor baliqlar: oq amur, oq do‘ng peshona, chipor do‘ng peshona kabi baliqlar ko‘paytirilmoqda. [4,7]

Xullas, 1965 yillarga qadar faqat cho‘l, sho‘rxok yaylovzorlardan iborat bo‘lgan bu maydon hozirgi kunda tobora jo‘shqin hayot o‘chog‘iga aylanib bormoqda. Kelgusida Quyimozor, To‘dako‘l suv omborlari va ularga yondosh bo‘lgan landshaftlarning tabiiy resurslaridan samarali foydalanish, ularni asrab - avaylash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Quyimozor platosida qum-chag‘il xomashyoni qazib olish natijasida hosil bo‘lgan buzilgan yerlarga fitomeliorativ tadbirlarni qo‘llash;

2. Asosan ichimlik suv manbai sifatida foydalanib kelinayotgan Quyimozor suv omborini muhofaza qilish choralari takomillashtirish zarur;

3. Dam olish zonalarida cho‘milish yo‘lalarida soyabonlar o‘rnatish, ularning ekologik holatini yaxshilash;

4. Sho‘rxok landshaftlardan samarali foydalanish maqsadida Quyimozor kanali bo‘yida ayniqsa, Xojkab sho‘rxokligida tuz, balchiq sanatoriyasini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, bu shahar aholisiga nisbatan qulay masofada joylashgan. Ikkinchidan, tuz-balchiq terapiya xalqqa ma‘lum bo‘lgan an‘anaviy davolash usullaridan biri bo‘lib, juda foydali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аббасов С.Б. Қизилқум чўли ландшафтлари динамикаси ва экологияси.// Монография. – Самарқанд: СамДУ, 2019. - 174 б.
2. Mirzoyeva I.E. Quyimozor – To‘dako‘l suv omborlari yondosh hududlari landshaftlari va ularning ekologik holati // Iqlim o‘zgarishi sharoitida cho‘l – voha ekosistemi: muammolar va yechimlar mavzusidagi xalqaro simpozium materiallari. Buxoro, 2023, 63 b
3. Назаров И.К. Аллаёров И.Ш. Бухоро географияси. 1-қисм// Бухоро, 1994, 67б.
4. Назаров И.К. Абиогенные потоки в аридных геосистемах: оптимизация природопользования. (На материалах нижней части р. Зарафшан)// Ташкент, “Фан”, 1992, 101 стр.
5. Раупов Ў., Эргашева М. К., Назаров И. К. Қуйимозор-Тўдақўл худуди ландшафтларини оқилона ташкил қилиш хусусида. “Ижодкор ёшлар ва фан-техника тараққиёти”. Бухоро. 2010. 152-155 б.
6. Расулов А.Р., Хикматов Ф.Х., Айтбоев Д.П. Гидрология асослари. – Тошкент.: Университет, 2003.
7. Тошев Х.Р. Чўл тўқай-эко톤 ландшафтлар типини ва уларни оқилона ташкил қилиш хусусида. Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 29-жилд. Тошкент, 2007.

O‘ZBEKISTON CHO‘L HUDUDLARINI EKOTURISTIK RAYONLASHTIRISHNING BA‘ZI MASALALARI

Abbasov S.B., Usmanov M.R., Jumaboyev T.J.

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, O‘zbekiston

Annotasiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston cho‘l hududlarini ekoturistik rayonlashtirish masalalari ekoturizm nuqtai nazaridan tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: ekoturizm, ekoturistik rayonlashtirish, cho‘l hududlari turistik imkoniyatlari

Некоторые вопросы экотуристического районирования пустынных территорий Узбекистана

Аннотация: В статье рассматривается экотуристическое районирование опустынивание территории Узбекистана и пути их использование в развитии экотуризма

Ключевые слова: экотуризм, экотуристическое районирование, туристические возможности пустынных территорий

МУНДАРИЖА:

ОГЛАВЛЕНИЕ:

CONTENT:

Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети ректори, профессор Рустам Ибрагимович Халмурадовнинг кутлови.....	8
Приветствие Ректора Самаркандского государственного университета имени Шарафа Рашидова, профессора Рустама Ибрагимовича Халмурадова	9
Greetings of the Rector of Samarkand State University named after Sharaf Rashidov, professor Rustam Khalmuradov.....	10

**I-SHO‘BA: ANTROPOGEN LANDSHAFTSHUNOSLIK TADQIQOTLARDAGI GIS
TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARNI QO‘LLASH**

Abbasov S.B. Mirzoyeva I.E.	Quyimozor - To‘dako‘l suv omborlari atrofi landshaftlarini oqilona tashkil qilish xususida.....	11
Abbasov S.B. Usmanov M.R. Jumaboyev T.J.	O‘zbekiston cho‘l hududlarini ekoturistik rayonlashtirishning ba‘zi masalalari.....	14
Alimkulov N.R.	Mirzacho‘lda antropogen ta‘sir natijasida geotizimlarda ekologik holatning o‘zgarishiga oid mulohazalar.....	17
Andronache Ion	Using succolarity in geographic research.....	20
Bakieva E. M. Gudkovskikh M.V.	Controversial methodological aspects of aesthetic evaluation of landscapes.....	24
Davronov K.Q.	Antropogen landshaftshunoslik maktabi sardori.....	28
Ibroimov SH.I.	Sug‘oriladigan hududlarning tabiat komponentlaridan oqilona foydalanishda havzaviy kartalashtirishning roli.....	31
Jankabilov I.X. Abdullayev S.I.	Neft-gazli mintaqalarda texnogen landshaftlarni o‘rganishning muhim jihatlari.....	34
Juraqulov X. Jumaboyev T. Juraqulova D. Xojiyev E.	Arid tog‘li o‘lkalarining cho‘llanishi va uning ekologik va sotsial oqibatlarini.....	38
Naimov H.N.	Shimoliy Farg‘ona tog‘ oldi landshaftlarini kartalashtirish masalalari: nazariya, metodika va amaliyoti.....	45
Nazarov M.G. Poyanov J.Sh. Ermo‘minov B.N. Bozorova S.S.	Qashqadaryo viloyati agrolandshaftlarining geografik jihatlari.....	48
Rajabov F.T.	Daryo havzasini tabiiy-xo‘jalik tizimi sifatida tadqiq qilishning bosqichlari.....	51
Raxmatov Yu.B.	Antropogen landshaftlarni tadqiq etishda zamonaviy tabiiy geografik tadqiqotlar.....	54
Sabirova N.T.	Sharqiy Qizilqum cho‘l landshaftlarining transformatsiyasi.....	58
Samyayev A.K.	Quyiy Zarafshon tuproq qoplami va uning inson ta‘sirida o‘zgarishi.....	60
Sattarov J.B. Turapov M.K. Amirqulov M.D.	Shimoliy Nurota g‘arbiy hududidagi (yariq-suluq maydonining) geologiyasi va ma‘danlashuvining ayrim xususiyatlari.....	64